


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026- yil 1- iyul holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 30,8 mingtani tashkil etadi, shundan 26,9 mingtasi yoki 87,3 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 110,6 foizni tashkil etdi.



Soni



O'sish sur'ati

	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		Tadbirkorlik subyektlari	<i>shundan:</i>
			Kichik biznes subyektlari
2026	30 798	27 043	26 905
2025	28 141	24 479	24 335
2024	29 366	25 899	25 729
2023	30 572	27 188	27 024
2022	32 105	28 694	26 421

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Buxoro shahrida – 26,7 foiz, G'ijduvon – 9,9 foiz, Romitan – 9,2 foiz, Jondor – 8,2 foiz va Buxoro – 7,8 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Romitan – 90,7 foiz va 90,4 foiz, Kogon – 90,7 va 90,2 foiz, Jondor – 89,7 foiz va 89,7 foiz hamda Buxoro – 88,8 foiz va 88,7 foiz tumaniga to'g'ri keldi.

	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		Tadbirkorlik subyektlari	<i>shundan:</i>
			Kichik biznes subyektlari
Olut tumani	1 300	1 112	1 106
Buxoro tumani	2 402	2 134	2 130
Vobkent tumani	1 882	1 650	1 646
G'ijduvon tumani	3 038	2 662	2 648
Kogon tumani	1 669	1 513	1 506
Qorako'l tumani	1 570	1 285	1 277
Qorovulbozor tumani	662	578	566
Peshku tumani	1 672	1 436	1 431
Romitan tumani	2 824	2 561	2 553
Jondor tumani	2 538	2 279	2 276
Shofirkon tumani	1 941	1 666	1 663
Buxoro shahar	8 218	7 222	7 167
Kogon shahar	1 082	945	936

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1- iyul holatiga 28,2 foizni (32,1 foiz va 32,2 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 11,2 % (12,7 % va 12,6 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 12,2 % (13,7 % va 13,7 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 51,6 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 743	3 704	3 697
Sanoat	3 449	3 441	3 406
Qurilish	2 277	2 258	2 245
Savdo	8 694	8 691	8 671
Tashish va saqlash	2 715	2 713	2 707
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 239	2 237	2 231
Axborot va aloqa	386	369	367
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 048	787	784
Boshqa turlar	6 247	2 843	2 797

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026- yil 1- iyul holatiga ko'ra, 27,0 mingta faol tijorat korxonalaridan 22,2 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	22 243	82,3
Xususiy korxonalar	2 152	8,0
Oilaviy korxonalar	2 425	9,0
Aksiyadorlik jamiyati	30	0,1
Boshqalar	193	0,6

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 438 ta korxonalardan 132 tasi qo'shma korxonalar va 306 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026- yilning 1- iyul holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalarning soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 99 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 129 tadan 162 taga, (o'sish 33 taga), sanoatda 94 tadan 112 taga (o'sish 18 taga) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 16 tadan 28 taga (o'sish 12 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	438	132	306
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28	15	13
Sanoat	112	49	63
Qurilish	29	5	24
Savdo	162	32	130
Tashish va saqlash	12	3	9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	26	11	15
Axborot va aloqa	7		7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	2	4
Boshqa turlar	56	15	41

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 94 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,5 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (9,4%), Turkiya (10,3%), Qozog'iston (1,6%) va Janubiy Koreya (3,0%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	438	132	306
Xitoy	94	24	70
Rossiya	41	20	21
Turkiya	45	22	23
Qozog'iston	7	1	6
Afg'oniston	22	2	20
Janubiy Koreya	13	8	5
AQSH	8	5	3
BAA	8	3	5
Germaniya	6	4	2
Tojikiston	8	1	7
Qirg'iz.Respublikasi	4	2	2
Hindiston	22	3	19
Ozarbayjon	4	1	3
Buyuk Britaniya	4	2	2
Belorusiya	2	2	
Turkmaniston	89	10	79
Pokiston	5		5
Boshqa davlatlar	56	22	34

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
N. Fuzaylova
65 220-80-00 (8060)

Manzil:
200100, Buxoro sh.,
Gazli shossesi ko'chasi, 32-uy
